

INGLIZ VA O‘ZBEK ASARLARIDA BOLALARNING IJTIMOIY HAYOTI TASVIRI

Jalilova Lola Jalilovna

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti

Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, (PhD)

Nematova Ro‘zigul

BuxDU Ingliz adabiyotshunosligi ta’lim yo‘nalishi

II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Quyidagi maqolada Ingliz hamda O‘zbek asarlaridagi bolalarning ijtimoiy hayoti tasvirlanadi. Shuningdek bolalarning ruhiy kechinmalari, asarda ularning tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, bolalar haqida yozilgan ingliz va o‘zbek asarlari haqida ham qisqacha ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, ruhiy kechinma, psixologiya, psixologizm, xarakter.

ABSTRACT

the following article describes the social life of children in English and Uzbek literary. It also talks about children’s mental experiences and their place in the works. In addition, the brief information is given about English and Uzbek works that written about children.

Key words and phrases: children literature, English literature, Uzbek literature, mental experience, psychology, psychologism, character.

Insonlar orasida eng nozik psixologiyaga ega kishilar bu bolalar jamiyatidir. Agar ularning yoshlik chogʻida hayotida qandaydir yomon hodisalar sodir boʻlgan boʻlsa, oʻsha hodisa bir umrlik chandiq boʻlib qoladi. Jamiyatda tutgan oʻrinlari va ularga qilinayotgan muomalalar ham bolalarning kelajakda qanday shaxs boʻlib shakllanishida katta rol oʻynaydi. Ayrim ingliz hamda oʻzbek yozuvchilari bolalarga bagʻishlab turli xil janrdagi asarlar yaratganliklari ham bejizga emas, chunki bolalar jamiyatning eng nozik, hamda asosiy qismi hisoblanadilar.

Ingliz adabiyotidan Joanna Katlin Roulingning mashhurlikka erishgan Garri Potter va hikmatlar toshi fantastik asarini misol qilib oladigan boʻlsak, garchi bu roman toʻqima obrazlarga boy boʻlsada, Garrining jamiyat orasidagi mavqeyi hamda insonlarning Garriga boʻlgan munosabatini yaqqol kuzatish mumkin. Esini tanimasdan turib, ota-onasidan ayrilgan goʻdak toki oʻzining kimligini bilguniga qadar oʻgaylik zahmatini tatib koʻradi. Garri Potterni oddiy yashab turgan zamonida shunchaki yetim boladek qabul qilishsa, afsungarlar dunyosida uni yovuz Vold de Mortdan himoya qiladigan buyuk shaxs sifatida hurmat qilishar edi. Doʻslari hatto sehrgarlik maktabidagi raqiblari oldida ham hurmatga erishadi. Garrining ruhiy kechinmalarini tahlil qiladigan boʻlsak, haqiqiy ota-ona mehrini his etmay katta boʻlgan bolakay, maktabiga, doʻstlariga hatto bir paytlar ota-onasi bilan doʻst boʻlgan Seriyus Blek, professor Lupinlarga oʻz mehrini qoʻyadi. Bu kishilar Garri Potter uchun tom maʼnoda oiladek edilar.

Ingliz adabiyotining yana bir koʻzga koʻringan romannavislaridan biri, kanadalik yozuvchi Lusi Movd Montgomeri bolalar haqidagi ajoyib bir romanga qoʻl uradi. “Anne of Green Gables” (Yashil panjarali Anna, ushbu asar hali oʻzbek tiliga tarjima qilinmagan, tarjima qilingan taqdirda, sarlavhasi qisman shunday boʻlsa kerak), ushbu roman 1908 – yil 13-iyunda chop etilgan. Asar 11 yoshli qizaloq Anna haqida. Ayrim manbalarda yozilishicha, ushbu asar barcha yoshdagilar uchun deyilgan. Bu asarga 20-asr oʻrtalaridan beri klassik bolalar romani sifatida qarab kelingan. Asar voqealari esa 19-asr oxirlarida boʻlib oʻtadi. Shuningdek, bu roman Anna Shoʻrleyning

sarguzashtlari deb ham talqin etiladi. Roman voqealari Kanadaning Shahzoda Edvard orolidagi “Evonli” (to‘qima xayoliy shahar) shahrida bo‘lib o‘tadi. [3]

Anna Sho‘rley toki uni asrab olishmagunicha umrini yetimxonada, qo‘pol tarbiyachilar hamda ruhiy xastalangan qizlar orasida o‘tkazadi. 11 yoshli, qizil sochli, yuzida sepskillari bor, ozg‘ingina Anna kichik xato sababli adashib oila qurmagan opa-ukalar oilasiga jo‘natiladi. Morella va Metyu Kasbert bular ikkovlari opa-uka bo‘lib, uylari joylashgan yer “Green Gables” deb atalar edi. Ya’ni Anna Green Gables ga keladi. Green Gablesga kelishi bu Annaning hayotidagi eng katta burlish bo‘lgan edi. Chunki yetimxonada qadrlanmagan hurmati, ushbu qishloqqa kelganidan so‘ng ortib boradi. [2]

Anna ham Garri singari ikki xil jamiyatda yashab ikki xil mavqega ega bo‘lgan qizaloq edi. Yetimxonadagi qizlar va tarbiyachilar Annaning sergapligi, qiziquvchanligi, hamda tasavvurga boy qiz ekanligini qabul qilisha olishmas edilar. Annani turli jazolar bilan jazolab unga ozor yetkazar edilar. Yetimlikda umr kechirgan bo‘lsada, Anna u bilan birga tarbiyalanayotgan qizlarga sira ham o‘xshamas edi, aksincha u kitob o‘qishni va hikoyalar aytishni yaxshi ko‘rar edi. U shunchalik keng tasavvurli qizaloq ediki, o‘z-o‘zidan hikoyalar tuzib yurar edi. Annaning bu qobiliyati atrofida qilarga esa umuman yoqmas edi. Uning baxti kulib asrab olinganidan so‘ng o‘zi uchun yaqin do‘st va yaqin insonlarini topdi. Ammo yetimxonadagi ruhiy zo‘riqishlar uning miyyasida bir umrlik trauma bo‘lib qoldi. Chunki kimdir uni kalaka qilsa, qizil bosh yoki ahmoq desa, tezda xafa bo‘lib o‘zini uzoq uzoqlarga olib qochar edi. Tashqi ko‘rinishini mazah qilgan insondan nafratlanar edi. Morella va Metyu Kasbertlarga esa ferma ishlarida yordam beradigan yetim o‘g‘il bola kerak edi lekin o‘rniga Anna keladi. Annani qabul qilishga uni asrab olishga rosa ikkilanishadi lekin Metyuning rahmdilligi sababli Annani asrab olishadi. [1:5]

Anna Morella hamda Metyuga mehr qo‘yadi hatto Opa-ukalar Annani maktabga berishadi. Anna maktabda do‘stlar ortiradi va Dayana ismli qiz bilan qalin dugona bo‘ladi. Anna juda ko‘p kitob o‘qigani uchun qiyin so‘zlarni o‘z nutqida qo‘llay olar

edi, bu esa atrofidagi bolalarni hayratga solar edi. Kuchli tasavvurga ega bo‘lgani sababli a’lochi o‘quvchilar safiga qo‘shiladi va sinfda yuqori obro‘ga ega bo‘ladi.

Anna o‘zi ozg‘in bo‘lsada irodasi kuchli qiz, tez orada barchaning ko‘nglidan joy oladi. Uning ruhiyati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, Anna tez xafa bo‘ladigan lekin doim pozitiv ravishda fikrlaydigan qizdir. Ushbu asarga ozgina feministik ruhda yozilgan asar sifatida qarash mumkin. Ayrim joylarida feminizm elementlarini uchratish mumkin. Annaning o‘zi ulg‘ayganidan so‘ng feminizmga yaqqol misol bo‘la oladi, chunki u ko‘proq qizlar va ayollar haq huquqini himoya qilish haqida fikr yuritadi.

O‘zbek adabiyotida ham bolalar asosiy qahramon etib qo‘yilgan asarlar mavjuda misol uchun G‘afur G‘ulomning “Shum bola”si, Tohir Malikning “Alvido Bolalalik” qissasi, Oybekning “Bolalik” qissasi hamda Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolalali yigitcha” sarguzasht romani. Ushbu ro‘yxatni davom ettiraman desa qator asarlarni topsa bo‘ladi.

G‘afur G‘ulom “Shum bola”sidagi bosh qahramon Qoravoy ismli shumtaka bola juda ko‘p sarguzashtlarni o‘z boshidan kechiradi, o‘zi shum bo‘lsa ham nohaqlik qilib birovni haqqini yeydigan, qo‘li egri bola emas edi. U barchaga barcha shum ishlarni qiladigan bebosh boladek tanilgan bo‘lsada qalban ko‘nglida kiri yo‘q beg‘ubor bola edi.[10]

Tohir Malikning “Alvido bolalalik” qissasi aslida detektiv yo‘nalishda yozilgan bo‘lsada, asarda nosog‘lom hayotda yashayotgan bolalarning ruhiy holatlari yoritib berilgan. Misol uchun Qamariddin ismli bola tashqi ko‘rinishi beso‘noqay bo‘lsada, ojizlarga mehribon edi u ota-ona tarbiyasini, mehrini ko‘rmagan va yetimxonada ozgina yashagan lekin uyerdan qochib jinoyatchi bolalar to‘dasiga qo‘shilib qoladi. U oldin yaxshi bola edi leki endi insonlar orasidagi mavqeyi jinoyatchi degan so‘z bilan o‘lchanar edi. Haqiqatdan ham insonlarni pulini o‘g‘irlaydigan qo‘li egri bola edi. [5]

Asror ismli bola- bilimdon, izlanuvchan o‘quvchi biroq uning o‘qishiga otasi qarshilik qiladi. Otasining yomon illatlaridan or qiladi, biroq mehribon, adolatli bo‘lishga intiladi. Oilasidagi notinch vaziyati va otasiga bo‘lgan nafrati tufayli, o‘zi

bilmagan holda jinoyat ko‘chasiga kirib qoladi. Qamariddin va Asror qo‘shilgan jinoytachilar to‘dasidagi bolalarning barchasi nosog‘lom muhitda yashagan, ruhiyatida nimadir yomon narsa chandiqlik bo‘lib qolgan bolalar edi.[5]

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning ‘Bolalik’ qissasi xotira qissa deb ham aytiladi. Ushbu qissa avtobiografik ruhda yozilgan bo‘lib, asosan yozuvchi o‘zining bolaligi xotiralarini eslaydi. “Tor ko‘chada, qo‘shnimizning eski, shaloqlik eshigi oldida mening chol bobom o‘z o‘rtog‘i – uzun soqolli, yirik jussali, kar quloqli mo‘ysafid bilan nimalar to‘g‘risidadir ezmalanib so‘zlashadi.”[6] Oybekning aytishicha u bolaligida bobosi uchun qadrlil nevara bo‘lgan ekan, chunki bobosi uning “handalqlik olib bering” degan gapidan so‘ng do‘konma do‘kon yurib handalqlik qidirgan ekan. Bundan ko‘rinib turibdiki Oybek ham yani “Bolalik” qissasi bosh qahramoni kichkina Muso ham boshqa bolalar singari yaqinlari hayotida o‘z o‘rniga ega bolakay bo‘lgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” sarguzasht romani ham beg‘ubor bolalik haqida so‘zlaydi. To‘xtaboyev asarining qahramoni orqali “yetim bola” obrazi talqin qilinadi.[8]

Bosh qahramon Orifjon ismli bola otasining urushga safarbar etilganidan so‘ng oilaning boshi shu Orifjon bo‘lib qoladi. Onasi ishga ketganida 5 ta ukasiga qarash uy ishlari hamda yana qandaydir yumushlarni qilish uning zimmasiga tushib qoladi. Urush davri barcha uchun eng qiyin vaziyat kechayotgan bir pallada Orifjon va uning ukalari ham qiyin sharoitda kun kechirishgan. Onasining vafoti bu bolalarga og‘ir zarba bo‘lib qoladi. Ular o‘zlarini chin yetimdek his eta boshlaydilar, chunki otasi haqida ‘qora xat’ keladi. Orifjondek yosh bolalar ba‘zan kattalar boshidan o‘tkazmagan haqiqiy mashaqqatni boshdan kechiradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, biz misol qilib olayotgan bolalar obrazi chin ma’noda jamiyatimizda yashab yurgan ba’zi qiyinchiliklar ichida, yomon muhitda katta bo‘layotgan, nosog‘lom oilada o‘sayotgan bolalardir. Garchi shunday vaziyatlarda yashayotgan bo‘lsalarda qalban beg‘ubor va rahmdil bolakaylar har doim jamiyatda o‘zlarining kichik o‘rinlari bilan yashab kelishgan. XI asr texnologiya hamda rivojlanish davri bo‘lsada, yuz yillar avval yozilgan asarlardagi ayrim bolalarni

hozir biz jamiyat orasida ko‘rishimiz mumkin, va ular haliham shunday muhitlarda yashab kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Lucy Maud Montgomery “Anne of Green Gables”
2. [Brittanica.com/topic/Anne-of-Green-Gables](https://www.britannica.com/topic/Anne-of-Green-Gables)
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Anne_of_Green_Gables
4. Tohir Malik “Alvido Bolalik”
5. <https://uz.denemetr.com>
6. https://ziyo.uz//oybek_bolalik_qissasi
7. <https://cyberleninka.ru>
8. Qodirjonova Iqbola Bahodirjon qizi “Bolalar adabiyotida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarida bosh qahramon badiiy obrazining talqini va personaj ichki kechinmalarning bolalarga xos tasviri.”
9. G‘afur G‘ulom “Shum Bola”
10. https://talaba.su//shum_bola_asari_haqida